



PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE THROUGH INTEGRATED METHODS

Askarova Zilolakhon Nurmuhamadovna

Lecturer at the Department of Exact and Natural Sciences,
Fergana Regional Center for Pedagogical Excellence;
Independent Researcher, Fergana State University

<https://orcid.org/0009-0004-0725-3147>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18605052>

ARTICLE INFO

Received: 05th February 2026

Accepted: 10th February 2026

Online: 11th February 2026

KEYWORDS

Integrative approach, creative competence, primary school teacher, methodological design, problem-integrative situations, interdisciplinary integration, reflexive-analytical integration, methodological portfolio.

ABSTRACT

This article analyzes practice-oriented methodological mechanisms aimed at developing the creative competence of pre-service primary school teachers based on an integrative approach. Creativity is interpreted not merely as an individual ability or an abstract quality, but as a professional competence formed through the integration of interdisciplinary knowledge, methodological thinking, psychological sensitivity, and digital technologies. The article provides a detailed description of such methods as integrative methodological design, problem-integrative situations, interdisciplinary creative tasks, the methodological laboratory, project-based integrative teaching, reflexive-analytical integration, and the creative methodological portfolio. These methods prepare students to analyze pedagogical situations, redesign lessons, integrate interdisciplinary knowledge, create open-ended tasks, define assessment criteria, and improve pedagogical decisions through reflective analysis. The article demonstrates the effectiveness of the integrative approach in developing creative competence through practical examples.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕГРИРОВАННЫХ МЕТОДОВ

Аскарова Зилолахон Нурмухамедовна

преподаватель кафедры «Точные и естественные науки» Центра педагогического мастерства Ферганской области, независимый исследователь Ферганского государственного университета

<https://orcid.org/0009-0004-0725-3147>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18605052>

ARTICLE INFO

Received: 05th February 2026

Accepted: 10th February 2026

Online: 11th February 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

В статье анализируются практико-методические механизмы, направленные на развитие креативной компетентности будущих



Интегративный подход, креативная компетентность, учитель начальных классов, методическое проектирование, проблемно-интегративные ситуации, междисциплинарная интеграция, рефлексивно-аналитическая интеграция, методическое портфолио.

учителей начальных классов на основе интегративного подхода. Креативность рассматривается не только как индивидуальная способность или абстрактное качество, но как профессиональная компетенция, формирующаяся в единстве междисциплинарных знаний, методического мышления, психологической чувствительности и цифровых технологий. В статье подробно раскрываются такие методы, как интегративное методическое проектирование, проблемно-интегративные ситуации, междисциплинарные креативные задания, методическая лаборатория, проектно-ориентированное интегративное обучение, рефлексивно-аналитическая интеграция и креативное методическое портфолио. Данные методы подготавливают студентов к анализу педагогических ситуаций, переработке и перепроектированию уроков, интеграции междисциплинарных знаний, разработке заданий с открытым результатом, определению критериев оценивания и совершенствованию педагогических решений на основе рефлексивного анализа. В статье показана эффективность интегративного подхода в развитии креативной компетентности на основе практических примеров.

KREATIV KOMPETENTLIKNI INTEGRATSIYALASHGAN METODLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna

Farg'ona viloyati Pedagogik Mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrası

o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0004-0725-3147>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1860502>

ARTICLE INFO

Received: 05th February 2026

Accepted: 10th February 2026

Online: 11th February 2026

KEYWORDS

Integrativ yondashuv, kreativ kompetentlik, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, metodik loyihalash, muammoli-

ABSTRACT

Maqolada integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan amaliyot-metodik mexanizmlar tahlil qilingan. Kreativlik faqat individual qobiliyat yoki abstrakt sifat sifatida emas, balki fanlar orasi bilimlar, metodik fikrlash, psixologik sezgirlik va raqamli texnologiyalar uyg'unligida



integrativ vaziyatlar, fanlar orasi integratsiya, refleksiv-tahliliy integratsiya, metodik portfolio.

shakllanadigan kasbiy kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Maqolada integrativ metodik loyihalash, muammoli-integrativ vaziyatlar, fanlar orasi kreativ topshiriqlar, metodik laboratoriya, loyiha asosida integrativ o'qitish, refleksiv-tahliliy integratsiya va kreativ metodik portfolio kabi usullar tafsiloti bilan bayon qilingan. Ushbu usullar talabalarni pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, darsni qayta loyihalash, fanlar orasi bilimlarni uyg'unlashtirish, ochiq topshiriqlar yaratish, baholash mezonlarini aniqlash va refleksiv tahlil orqali pedagogik qarorlarni takomillashtirishga tayyorlaydi. Maqola kreativ kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuvning samaradorligini amaliyot misollari bilan ko'rsatadi.

Mazkur ishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantiruvchi amaliy-metodik mexanizmlarni yoritilgan bo'lib, unda kreativlik abstrakt sifat yoki faqat individual qobiliyati bilan kifoyalanmay, fanlararo bilimlar, metodik tafakkur, psixologik sezgirlik va raqamli texnologiyalar uyg'unligida shakllanuvchi kasbiy kompetensiya sifatida talqin etiladi. Tadqiqotimiz doirasida qo'llaniladigan metodlar talabaning tayyor didaktik andozalarni takrorlashi bilan cheklanmay, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, darsni qayta loyihalash, ochiq yakunli topshiriqlar yaratish, metodik qarorlarni asoslash va refleksiv baholash faoliyatini tizimli yo'lga qo'yishga yo'naltiriladi.

Quyida integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy va aniq metodlar keltirilgan. Biz, ushbu metodlarni sanab o'tish bilan cheklanmaymiz, ularning ichki pedagogik mexanizmi, amalga

oshirish bosqichlari hamda tadqiqot jarayonida qo'llanish usullari mazmunan ochib beriladi.

1. Integrativ metodik loyihalash (darsni qayta loyihalash) metodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida ijodiy va tizimli fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda talaba tayyor dars ishlanmasini tahlil qiluvchi va qayta konstruksiyalovchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda pedagogika, fanlarni o'qitish metodikasi, yosh psixologiyasi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlar yagona metodik konsepsiya asosida integratsiyalanadi. Dars maqsadlari o'quvchilarning rivojlanish ehtiyojlari va kutilayotgan ta'lim natijalari bilan uyg'unlashtiriladi, o'quv vazifalari esa muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Baholash mezonlari kriterial yondashuv asosida belgilanib, refleksiya bosqichi dars jarayonini chuqur tahlil qilish va keyingi pedagogik qarorlarni aniqlashtirishga



xizmat qiluvchi muhim metodik mexanizm sifatida qaraladi.

Mazkur metod dars mazmunini fanlararo integratsiya asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratib, ona tili, matematika, vizual materiallar va raqamli resurslar o'rtasidagi mantiqiy hamda mazmuniy bog'liqlikni ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilarda bilimlarni yaxlit idrok etish, tushunchalararo aloqalarni anglash va bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Darsni qayta loyihalash jarayonida talaba bir nechta metodik yechimlarni ishlab chiqadi, ularni taqqoslaydi va tanlangan variantni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslaydi. Natijada talabaning kreativ fikrlashi, metodik moslashuvchanligi hamda pedagogik qarorlarni mustaqil va asosli qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

2. Muammoli-integrativ vaziyatlar metodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini real pedagogik faoliyatga yaqinlashtirishga qaratilgan murakkab didaktik mexanizm bo'lib, ularning kasbiy tafakkuri va metodik mustaqilligini rivojlantirishni ta'minlaydi. Ushbu metod doirasida talabalarga sun'iy topshiriqlar emas, balki boshlang'ich sinf amaliyotida tez-tez uchraydigan, ochiq va oldindan yagona yechim bilan chegaralanmagan pedagogik vaziyatlar taklif etiladi. Bu vaziyatlar didaktik qiyinchiliklar, o'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlari, shuningdek, sinfni tashkil etish, vaqtni taqsimlash va o'quv faoliyatini boshqarish bilan bog'liq masalalarni kompleks tarzda qamrab oladi. Talaba vaziyatni yaxlit pedagogik tizim sifatida tahlil qilib, muammoning

sabab-oqibat aloqalarini va pedagogik jarayon omillari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni anglaydi, bu esa kasbiy tafakkurning real faoliyat sharoitlariga mos ravishda shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur metodni qo'llash jarayonida talaba muammoli vaziyat uchun bir nechta metodik yechim variantlarini ishlab chiqadi va ularni fanlarni o'qitish metodikasi, yosh psixologiyasi hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'un holda asoslaydi. Bu jarayon talabaning nazariy bilimlarni amaliy vaziyatga tatbiq etish, ilmiy-pedagogik manbalarga tayangan holda o'z fikrini himoya qilish va muqobil yondashuvlarni tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ochiq yechimli vaziyatlar talabaning nostandart fikrlashi, variativ va moslashuvchan yondashuvini kuchaytirib, xatodan cho'chimagan holda ijodiy tashabbus ko'rsatish va refleksiv tahlil orqali o'z metodik qarorlarini takomillashtirish imkonini beradi. Natijada muammoli-integrativ vaziyatlar metodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida real pedagogik sharoitlarda mustaqil, moslashuvchan va ijodiy faoliyat olib borishga tayyor barqaror kasbiy pozitsiyani shakllantiradi.

3. Kreativ topshiriqlarni fanlararo integratsiya asosida ishlab chiqish metodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida o'quv mazmunini yaxlit va mazmunan chuqur tashkil etishga yo'naltirilgan muhim metodik yondashuvdir. Ushbu metodda talaba topshiriqlarni faqat bitta fan doirasida emas, balki ona tili, matematika, tabiiy fanlar, tasviriy



faoliyat va raqamli vositalar o'rtasidagi mantiqiy hamda mazmuniy bog'lanishlar asosida integratsiyalashgan holda loyihalaydi. Bunday yondashuv o'quv materialining parchalanib ketishining oldini olib, bilimlarni tizimli o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ochiq yakunli kreativ topshiriqlar o'quvchilardan tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarishga oid intellektual faoliyatni talab etib, o'rganish jarayonining mazmungan boyishiga hamda ko'p yo'nalishli tus olishiga imkon yaratadi.

Fanlararo integratsiyaga asoslangan kreativ topshiriqlarni ishlab chiqish jarayoni talabaning didaktik tafakkuri, metodik moslashuvchanligi va kasbiy tashabbuskorligini rivojlantiradi. Talaba topshiriqni loyihalashda uning maqsadi, kutilayotgan natijalari, bajarish jarayoni va baholash mezonlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga intiladi hamda bir nechta yechimni qamrab oluvchi kriterial baholash tizimini ishlab chiqadi. Natijada talaba turli pedagogik vaziyatlarga moslashish, o'quv mazmunini qayta qurish va noan'anaviy didaktik yechimlar taklif etish tajribasini egallaydi. Ushbu metod orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida barqaror ijodiy pozitsiya va zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik shakllanadi.

4. Metodik laboratoriya (ijodiy sinov maydoni) metodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan amaliyotga yo'naltirilgan samarali shakl hisoblanadi. Ushbu metod doirasida talaba tayyor dars ishlanmasini takrorlash bilan cheklanmay, real ta'lim sharoitiga yaqin dars fragmentlarini

mustaqil modellashtiradi. Dars maqsadi, o'quv vazifalari, mazmun, metod va vositalar hamda baholash mezonlari yagona tizimda loyihalanib, bunda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, sinf muhiti va o'quv motivatsiyasi inobatga olinadi. Metodik laboratoriya talabaning pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytirib, nazariy bilimlarni real vaziyatda sinab ko'rish imkonini yaratadi.

Metodik laboratoriya mashg'ulotlarida fanlararo integratsiya ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirilib, ona tili, matematika, atrof-muhit bilan tanishtirish, tasviriy san'at va raqamli savodxonlik elementlari yagona didaktik tizimda uyg'unlashtiriladi. Vizual materiallar, interaktiv topshiriqlar va raqamli resurslar dars fragmentlarini boyitib, o'quvchilarning fikrlashi va faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Refleksiv tahlil, guruhviy muhokama va o'zaro baholash orqali talaba o'z faoliyatining kuchli va sust jihatlarini aniqlaydi, muqobil metodik yechimlarni ko'rib chiqadi hamda xatolarni kasbiy rivojlanish manbai sifatida qabul qiladi. Natijada metodik laboratoriya talabaning kreativ kompetentligini barqaror kasbiy sifat sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik muhitni vujudga keltiradi.

5. Loyihaga asoslangan integrativ o'qitish metodi talabalarning kichik guruhlarda real dars amaliyotiga yaqin bo'lgan integratsiyalashgan metodik mahsulotlarni (dars ishlanmasi, modul, metodik to'plam yoki raqamli resurslar paketi) ishlab chiqishiga yo'naltiriladi. Jarayon loyiha maqsadini aniqlashdan boshlanib, unda



o'quvchilarning bilim darajasi, mavzu doirasi, integratsiyalashadigan fanlar, baholash mezonlari hamda o'quv faoliyatining bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilanadi. Guruh "mazmun-jarayon-vosita-baholash" zanjiri asosida o'quv mazmunini fanlararo bog'lanishlar orqali loyihalab, topshiriqlar ketma-ketligini motivatsiya, yangi bilimni kashf etish, mustahkamlash, ijodiy qo'llash va yakuniy refleksiya bosqichlari bo'yicha quradi hamda ko'rgazmali va raqamli vositalarni didaktik maqsadga muvofiq tanlaydi. Jarayonda rollar va mas'uliyat zonalari aniq taqsimlanib, jamoaviy ijod bilan bir qatorda kasbiy intizom ham shakllanadi.

Mazkur metodning samaradorligi tayyor ishlanmani demo mashg'ulot yoki amaliyotga yaqin sinf modeli orqali sinovdan o'tkazish jarayonida kuchayadi. Sinov davomida talaba dars ssenariysining samaradorligini, integratsiyaning mazmuniy bog'liqligini, raqamli vositalarning o'quv maqsadiga mosligini va baholash mezonlarining adolatliligini tahlil qiladi. Yakuniy refleksiya "kuchli jihatlar-muammo-taklif" formatida amalga oshirilib, takomillashtirish yo'nalishlari belgilanadi. Natijada talabalar integrativ fikrlash, kreativ hamkorlik, loyihalash madaniyati va kasbiy refleksiyani yagona kompetensiya sifatida egallab, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining real pedagogik vaziyatlarda asosli qarorlar qabul qilish va zamonaviy ta'lim hamda baholash vositalarini samarali qo'llashga tayyorgarligi mustahkamlanadi.

6. Refleksiv-tahliliy integratsiya metodi mashg'ulot yakunini oddiy xulosa bilan cheklamay, uni kasbiy o'sishni boshqaruvchi tahliliy bosqich sifatida

tashkil etadi. Ushbu metod doirasida talaba o'z faoliyatini voqealar ketma-ketligi, metodik tanlovlar va erishilgan natijalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish asosida tizimli tahlil qiladi. Refleksiya pedagogik, metodik va shaxsiy-professional mezonlarning uyg'unligi asosida olib borilib, talaba nafaqat "nima qilindi", balki "nega shunday qilindi", "qaysi dalillarga tayanildi" va "qarorlar o'quvchi natijasiga qanday ta'sir ko'rsatdi" kabi savollar orqali o'z faoliyatini asoslaydi. Metodning integrativ xususiyati shundaki, darsdagi muammo yoki yutuq bitta omil bilan izohlanmay, balki topshiriq darajasi, motivatsiya, ko'rsatma aniqligi, AKT vositalarining mosligi va baholashning rag'batlantiruvchi ta'siri birgalikda tahlil qilinadi.

Amaliy jihatdan refleksiv-tahliliy integratsiya metodida refleksiya varaqalari, "dalil-xulosa-taklif" jadvallari, portfellar hamda yozma yoki audio-video tahlil kabi aniq instrumentlardan foydalaniladi. Talaba avval faktlarni aniqlaydi, so'ng dalillarga tayangan holda natijalarni baholaydi va oxir-oqibat muvaffaqiyat yoki sustlashuv sabablarini izchil tahlil qilib, aniq va o'lchanadigan takomillashtirish yo'nalishlarini belgilaydi. Ushbu jarayon kreativ tajribani tasodifiy holatdan ongli va barqaror kasbiy odatga aylantirib, talabaning metodik qaror qabul qilish sifati, variativ fikrlashi, moslashuvchanligi va mas'uliyatli yondashuvini izchil rivojlantiradi.

7. Kreativ metodik portfolio yuritish metodi talabaning kasbiy tayyorgarligini izchil rivojlanib boruvchi metodik yo'l xaritasi sifatida aks ettiradi. Ushbu metod doirasida dars



ishlanmalari, integratsiyalashgan topshiriqlar, mini-loyihalar, didaktik materiallar, baholash mezonlari va tahliliy-refleksiv yozuvlar yagona tizimli portfellda hujjatlashtiriladi. Materiallar mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilib, fanlararo integratsiya darajasi, metodik asoslanganlik, o'quvchi yosh xususiyatlariga moslik va amaliy qo'llash imkoniyati mezonlari asosida tahlil qilinadi. Natijada portfel talabani metodik tafakkuri va kreativ yondashuvining bosqichma-bosqich chuqurlashib borishini, reproduktiv ishlanmalardan muammoli va ochiq yakunli topshiriqlargacha bo'lgan rivojlanish dinamikasini aniq aks ettiradi.

Portfolio yuritishda har bir material izoh va refleksiya bilan birga taqdim etilib, talaba mashg'ulot pasporti, tanlov sabablari, duch kelgan qiyinchiliklar hamda kuchli va sust jihatlarni tizimli ravishda bayon etadi. Ushbu jarayon talabani o'z faoliyatini nazorat qilish, darsni qayta loyihalash va metodik xatolarni kamaytirish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Portfolioda ijodiy g'oyaning shakllanishi, metodik qarorga aylanishi, resurs tanlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish bosqichlari izchil yoritilib, natijada portfolio oddiy hisobot vositasidan chiqib, talabani kreativ kompetentligini namoyon etuvchi, metodik o'sishni aks ettiruvchi va kelajak pedagogik faoliyatiga tayyorlovchi

individual metodik kapital sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, paragraf doirasida bayon etilgan integrativ metodlar majmuasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida kreativ kompetentlikni pedagogik vaziyatni ko'ra olish, darsni qayta loyihalash, fanlararo mazmunni uyg'unlashtirish, ochiq yakunli topshiriqlarni konstruktsiyalash, raqamli resurslarni didaktik maqsadga mos tanlash, kriterial baholashni qurish hamda refleksiv tahlil orqali qarorlarni takomillashtirishga tayangan kompleks kasbiy sifat sifatida shakllantiradi. Integrativ metodik loyihalash talabani "maqsad-faoliyat-baholash-refleksiya" zanjirini qayta qurish madaniyatini mustahkamlaydi, muammoli-integrativ vaziyatlar real dars sharoitiga yaqin noaniqlikda variativ yechim ishlab chiqish va dalillashni chuqurlashtiradi, fanlararo kreativ topshiriqlar didaktik fantaziya bilan metodik asoslanganlikni uyg'unlashtiradi, metodik laboratoriya sinov va tahlil orqali amaliy tajribani boyitadi.

Loyiha asosidagi integrativ o'qitish jamoaviy ijod va mas'uliyatli rollar orqali metodik mahsulot yaratish kompetensiyasini kengaytiradi, refleksiv-tahliliy integratsiya pedagogik qaror sifatini dalil asosida oshiradi, kreativ metodik portfolio o'sish trayektoriyasini hujjatlashtirib, talabani kasbiy identifikatsiyasini barqarorlashtiradi.

References:

1. Kaldibekova A.S., Kamalova D.O. Ta'lim texnologiyalari fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Toshkent farmatsevtika instituti, 2021. – 128-bet.



2. Qo'ysinov O.A., Rajabova S.Yu. Kasbiy pedagogika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari: metodik qo'llanma / p.f.d., prof. N.A. Muslimov umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – B. 6.
3. Беспалько В.П. Проектирование педагогических систем // Проектирование в образовании: проблемы, поиски, гипотезы. – М., 1994. – С. 28–29.
4. Федорова Н.Б., Кузнецова О.В., Поляков А.С. Межпредметная интеграция в курсе физики: учебно-методическое пособие. – Рязань: Ряз. гос. ун-т им. С.А. Есенина, 2010. – С. 5.